

## YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING PROFILAKTIKASI

*Soliyeva Maqsuda Azamat qizi*  
*O'zbekiston Milliy Universiteti*

**Annotatsiya:** Deviant tushunchasi lotincha «deviation» soʻzidan olingan boʻlib, ogʻish, chetga chiqish degan maʼnoni bildiradi. Deviant xulq-atvorli kishilarni xulqi ogʻishganlar deb ham ataladi. Zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, demokratiyaning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar koʻpincha oʻsmirlar muhitida salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Yoshlar adolatsizlikka qarshi isyon koʻtaradilar, axloqiy meʼyorlarni oʻrnatdilar yoki oʻrnatdilar Deviant xulq-atvor ichkilikbozlik, giyohvandlik, oʻz-oʻzini oʻldirish bilan bogʻliq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga koʻra mohiyatan turli jihatlarga ega. Birinchi farq uzoq davom etadigan ijtimoiy zararli odatlar deviant xulq-atvor turmush tarzining ajralmas qismiga aylanadi. Doimiy oilaviy kelishmovchilik, oila va atrof-muhitdan qoniqmaslik, uydagi tushunmovchilik va boshqalar. Bularning barchasi bolaning ruhiyatini jarohatlaydi va u mavjud vaziyatni oʻzgartirishga harakat qiladi. Bu oʻrinda kamchiliklar, jumladan, nizolar rivojlanishining oldini oluvchi va unga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ijtimoiy institutlarda salbiy rol oʻynaydi.

**Kalit soʻzlar:** Deviant xatti-harakat, ommaviy globallashuv, Demokratiyaning rivojlanishi, axloqiy meʼyor.

**Abstract:** The concept of deviant is derived from the Latin word "deviation", which means to deviate, to deviate. People with deviant behavior are also called deviants. In the modern world, the problem of deviant behavior is particularly acute. Economic inequality, mass globalization, free access to information, the development of democracy, as well as social phenomena often cause negative reactions in the environment of adolescents. Young people rebel against injustice, establish or establish moral standards. Deviant behavior. have essentially different aspects. The first difference is that long-lasting socially harmful habits become an integral part of the deviant behavior lifestyle. Constant family discord, dissatisfaction with family and environment, misunderstanding at home, etc. All this hurts the psyche of the child, and he tries to change the current situation. Deficiencies in this place, including social control systems that prevent the development of conflicts and fight against them, play a negative role in social institutions.

**Keywords:** Deviant behavior, mass globalization, development of democracy, moral standard.

## KIRISH

Azaldan nafaqat o'zbek xalqi, balki barcha millat odob-axloq masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelishadi. Axloq-odobning mukammalligi inson kamoloti belgisidir. Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Yaxshi xulq kaliti- yaxshi tarbiyadir. Ba'zi bir oilalarning bola tarbiyasidagi xatoliklari, kamchiliklari va e'tiborsizligi jamiyatda deviant xulq-atvor shakllanishiga olib kelmoqda. Deviant, ya'ni normadan og'ishadigan xulq-atvor butun bir jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi. Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab xarakterga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Yoshlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida: biologik, psixologik, ijtimoiy omillarni keltirib o'tish joiz.

Yoshlar yurtimizning kelajagi hisoblanadi. Bugungi kunning ayrim yoshlari esa jamiyatimizga katta xavf tug'diradi. Bunday vaziyatlar o'smirlik davridagi yoshlarning xulq-atvori emas balki, kelajakdagi turli xil noqobil ishlar va huquqbuzarliklardan dalolat berayotgan bo'lishi mumkin. Bolaning tarbiyasida eng avvalo ota-onasi keyinchalik do'stlari katta ahamiyatga ega. Chunki hozirda ommaviy axborot vositalari rivojlanib borayotgan davrda yoshlarimiz asosiy vaqtini kompyuter o'yinlari yoki telefonlarda o'tkazishmoqda. Yoshlarning ongini kitob yoki telefonga qaratish va qiziqtirish esa ko'plab holatlarda ota-onaga bog'liq, chunki farzandlarni moddiy tomondan uning ota-onasi ta'minlaydi. Farzandining nimalar bilan bandligini nazorat qilish, turli xil fan to'garaklariga jalb qilish, farzandiga tinch sharoitni yaratib berish bilan deviant xulq-atvorning oldini olishi mumkin.

A.I. Kravchenko tomonidan deviant va delikvent xulq-atvorining o'zaro farqlanishi quyidagicha ifodalanadi: deviant va delikvent xulq-atvor bu me'yoriy xulq-atvordan og'ishning 2 shaklidir. Bunda birinchi shakl nisbatan kam ahamiyatga ega bo'lib, ikkinchisi mutlaq va sezilarlidir. Delikvent xulq-atvor qilmishlari ular bevosita yo'l bilan taqib qilinishiga qaraganda keng ko'lamdagi spektrni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu ko'rinishda xulq-atvorning ko'plab turli xil shakllari hatto agar xulq-atvor o'ziga xos tarzda huquqiy me'yorlarga qarshi xususiyatlarga ega bo'lmasada ijtimoiy jazoga mahkum qilinishi yoki tahqirlanishi mumkin, bu ko'rinishdagi xulq-atvor shakllariga misol sifatida haqoratlar, "ahmoqona to'da"ga qo'shilish, odatga aylanmagan tarzda mastlik holatlari kabilarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunday holatlarda bola boshqarib bo'lmaydigan darajaga ham yetib kelishi mumkin.

Ayrim hollarda bola ommaviy axborot vositalari orqali turli xil to'daga aralashib qoladi. Bunday jarayonlarda esa bola ularning ta'sir doirasidan chiqib olmagan holda bosim ostida qolib ketadi. Shuning natijasida bolada o'zini tutishlari o'zgarishi, tushkunlik holatlari yuzaga keladi. Farzandida o'zgarishlar sezayotgan ota-ona uni zudlik bilan nazoratga olishi kerak, u bilan yaqindan sirlashishga harakat qilishi kerak. Bolaga psixologlar yondashishi ham maqsadga muvofiq. Agarda ota-ona ham bunday

vaziyatda bolani turli xil “ahmoqona” jazolashlar jumladan bola bilan muloqotni to’xtatib qo’yish orqali yoki uni bee’tiborlik bilan jazolasa, bolada ko’chada turli insonlarga aldanib qolish moyilligi ko’proq bo’ladi.

Bola psixologiyasi murakkab. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar, dastavval, yaqqol va alohida olingan holat, vaziyatni o’z ichiga qamrab oladi. Masalan, sinchkov bola o’z muddaosiga yetish uchun otasiga, onasiga, buvasiga, opasi hamda akasiga har xil uslub bilan ta’sir o’tkazadi, turlicha vositalardan foydalanadi. U ko’zlangan maqsadiga erishish uchun katta yoshdagi odamlarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutadi. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar aniq vaziyatga qaratilganligi, biror shaxsga yo’naltirilganligi bilan ilmiy psixologik bilimlardan farq qiladi.

Yosh avlod orasida o’z joniga qasd qilish kam uchraydi. O’z sog’lig’iga zarar etkazishga qaratilgan harakatlar o’spirinning o’z joniga qasd qilgan deviant xatti-harakati bilan bog’liq. Uning ba’zi turlari namoyishga, achinish tuyg’usini uyg’otishga, odamga e’tibor berishga qaratilgan. Shunday bo’lsa-da, bunday harakatlar ba’zan kuchli hissiy shok yoki travma natijasida ta’sirlangan holatda qilinadi. Deviant xulqning oqibatlari Psixologiyada buzuvchi xatti-harakatlar ommaviy xarakterga ega bo’ladi, bu zamonaviy hayotning haqiqiy ofati. Uning oqibatlari eng oddiy, jamiyat tomonidan qoralanishdan tortib, hayotdan mahrum bo’lishgacha bo’lishi mumkin. Shuning uchun ularning psixik holatini yaxshilashga urinishimiz kerak.

Professor M.G.Davletshin fikricha, psixika deganda - oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u ob’ektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo’ladi, sub’ekt faoliyatini ma’lum maqsad asosida yo’naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi, professor V.M.Karimova fikricha psixika - inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2007-yil 30-avgust kuni Oqsaroyda Senat, Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasining qo’shma majlisida so’zga chiqib, bugungi kunda yoshlarimiz qalbi va ongiga tahdid solayotgan ommaviy madaniyat tahdidi mohiyatini ochib berib: “Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilgandan so’ng jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo’lishi kerak” – deydi.

Deviant xulqli o’smirlarga ko’rsatiladigan yordam, asosan, ikki yo’nalishda bo’ladi. Ruhijihatdan oldini olish, ruhiy tuzatmoq va oqlamoq. Psixologik tashxis qo’yish – psixodiagnostika kerakli bo’lgan, ammo hayotiy zarurat sanalmaydigan faoliyatdir. O’smir yoshlar bilan ruhiy profilaktika ishini olib borishning turli



shakllari bor. Ilmiy – ommabop adabiyotlarga asoslanib, ularni yettita shaklga umumlashtirgan holda amalga tatbiq estish mumkinki, aynan shu shakllar, nafaqat che t davlatlarda, qisman O‘zbekistonda ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Birinchi shakl – ijtimoiy muhitni tashkil qilish. Uning asosida atrof – muhitni deviant xulqli o‘smirlarga bo‘lgan ta’siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta’sir qilib, shaxsni salbiy xulqini o‘zgartirish mumkin. Bunda o‘smirning deviant xulqini muhokama qiluvchi jamoatchilikning ta’siri ham ish berishi mumkin. Faoliyat davomida oilaga, alohida shaxsga suyanish mumkin. Yuqoridagi shakl negizida sog‘lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug‘ullanishni targ‘ib qilish bilan deviant xulqqa bog‘lanib qolishning oldinin olish mumkin.

Ikkinchi shakl bo‘yicha profilaktika olib borish usuli – axborot yetkazish. Bu ancha ommalashgan yo‘nalish bo‘lib, unda leksiya, suhbat, maxsus adabiyotlar va telefilmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi – shaxsning bilish faoliyati va qiziqishlariga ta’sir qilib, unda kerakli, to‘g‘ri xulosa chiqara olish qobiliyatini shakllantirishdir. Buning uchun, masalan, giyohvand moddalarning sog‘liqqa va shaxsga qanchalik halokatli ta’sir qilishi haqidagi aniq faktlarga asoslangan statistik ma’lumotlar va misollarda keng foydalanish zarur. Bunda o‘smirlar har xil guruhlariga qo‘shilib qolishdan qo‘rqishi va bunday xulq-atvor egalarining hayoti qanday kechganligi haqida ogohlantirilishi kerak. Bola bunday jarayondan ogohlantirilishi bilan birga uni kitobga qiziqtirish kerak. Ota-ona uni turli xil kitoblar mutolaa qilganligi uchun kichkina bo‘lsa ham qandaydir sovg‘a bilan rag‘batlantirishi kerak shundagina bola hayotida o‘z mehnati evaziga yutuqlarga erishishi mumkinligini anglab yetadi.

Psixologiyada xulqi og‘ishgan o‘quvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud. Birinchi gurux-ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar. Ikkinchi gurux- qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar. Uchinchi gurux- ijobiy va salbiy xulq atvor steriotiplari o‘rtasida ikkilanuvchi, o‘z holatlarini tushunuvchi bolalardir. To‘rtinchi gurux- irodali bolalarga bo‘ysinuvchilar. Beshinchi gurux-qonunbuzarlik yo‘liga tasodifan kirib qolganlar. Ijtimoiy psixolog G.M. Andreyeva ijtimoiylashuvni quyidagicha tar‘riflagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy me‘yorlik va qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, zarur bo‘lsada, bu jarayon uning butun umri bo‘yi davom etadi. Birorta ham inson o‘ziga boshqa insonlarning o‘tkazadigan ta’sirisiz mavjud bo‘la olmaydi va bu uning xulqatvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi. Shuning uchun ham bolaning o‘smirlik davri og‘ir kechadi. Bu davrda bolaning maktab o‘qituvchisi va oila a‘zolaridan xushyorlik talab qilinadi. Chunki hech bir inson yomon xulq-atvorga ega bo‘lib tug‘ilmaydi. Bunga atrof muhit, do‘stlar, oila a‘zolar sababchi bo‘ladi. Oila

ichidagi kelishmovchiliklar bola psixologiyasiga ta'sir qiladi. Uning salbiy tarafga ketish oqibatlarini esa hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bu esa bizning kelajagimizga ham juda katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**XULOSA:** Mening fikrim shuki, bola avvalo tarbiyani oilasidan oladi. Ota-onasi bilan oilada kelishmovchiliklar, oiladagi turli xil ziddiyatlar bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirda ayrim oilalarda bolaning ko'z oldida er-xotin janjallashishlari holatlari kuzatilmoqda. Hattoki bolani er-xotin faqat otasini yoki onasini tanlashga majbur qilishyabdi. Oila qurishdan oldin bo'lajak er-xotinga bola psixologiyasi va undagi jarayonlar ayrim hollarda oilani saqlab qolish yoki bolani salbiy oqimlarga kirib qolishini oldini olishda qanchalik muhim ekanligini singdirish lozim. Chunki ba'zi onalar eridan o'ch olish maqsadida ham bolalarini qurbon qilishmoqda. Ba'zan ular orasida hech qanday yaxshi munosabat qolmagan va eri bilan bola orqali yaqinlashish maqsadida bolani qiynab jaroxatlab videoga olib eriga xabar berayotgan onalar borligiga guvoh bo'lyabmiz. Ayrim ajrashgan oila bolalaridan ham ota onasidan jabrlangan bolalar ko'payishini oldini olish uchun, ya'ni bola qay darajada mehr olayotganini nazorat qilish maqsadida turli xil psixologik so'rovnomalar o'tkazish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerdagi, T., 2002
2. Qodirov B., Layohat psixologiyasi, T., 1989
3. <https://fayllar.org/xulq-atvorida-ozgarish-bolgan-oquvchi--yoshlar-bilan-korreksiy.html?page=3>
4. <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/download/59/47>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-deviant-xulq-atvor-profilaktikasi>
6. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8425/5859>
7. <https://kompy.info/deviant-xulq-atvor-rivojlanishining-oldini-olishda-ruhiy-tarbi.html>